

GERBITSIDLAR VOSITASIDA KUZGI BUG'DOY DALASIDAGI IKKI PALLALI VA BOSHOQLI BEGONA O'TLARNI BARTARAF ETISH

Sulliyeva Suluv Xurramovna -Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası

dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining sug'oriladigan yerlari sharoitida kuzgi bug'doy dalalarida keng tarqalgan ikki pallali (oq sho'ra) va boshhoqli (yovvoyi suli, itqunoq, shamak) begona o'tlarni gerbitsidlar vositasida samarali bartaraf etish usullari o'rganilgan. Tadqiqotda "Puma super" gerbitsidining boshhoqli, "Granstar" gerbitsidining esa ikki pallali begona o'tlarni yo'q qilishdagi yuqori selektiv samaradorligi aniqlangan. Gerbitsidlarning me'yori, qo'llanilish muddati va ularni aralashtirib qo'llash usullari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Kuzgi bug'doy, Gerbitsid, Puma super, Granstar, Ikki pallali begona o'tlar, Boshhoqli begona o'tlar, Selektiv ta'sir.

Аннотация: В данной статье изучены эффективные способы борьбы с широко распространёнными двудольными (белая солянка) и злаковыми (овсюг, щетинник, плевел) сорняками на посевах озимой пшеницы в условиях орошаемых земель Сурхандарьинской области. В ходе исследования было установлено, что гербицид «Puma Super» обладает высокой селективной эффективностью против злаковых сорняков, тогда как гербицид «Granstar» — против двудольных. Были изучены нормы расхода гербицидов, сроки их применения, а также методы совместного использования.

Ключевые слова: Озимая пшеница, Гербицид, Puma Super, Granstar, Двудольные сорняки, Злаковые сорняки, Селективное действие.

ELIMINATION OF BROADLEAF AND GRASS WEEDS IN AUTUMN WHEAT FIELDS USING HERBICIDES

Sulliyeva Suluv Xurramovna – Associate Professor of the Department of Botany,
Termiz State University.

Annotation: This article investigates effective methods for controlling widespread broadleaf (e.g., *Chenopodium album*) and grass (e.g., wild oat, foxtail, ryegrass) weeds in winter wheat fields under the irrigated conditions of the Surkhandarya region. The study found that the herbicide "Puma Super" demonstrated high selective efficacy against grass weeds, while "Granstar" was highly effective against broadleaf weeds. The research examined herbicide dosages, application timing, and methods of combined usage.

Keywords: Winter wheat, Herbicide, Puma Super, Granstar, Broadleaf weeds, Grass weeds, Selective action.

Kuzgi bug'doy dalasidagi ikki pallali va boshqoli begona o'tlarni bartaraf etilishida gerbitsidlarning turi, meyori va qo'llanilish usullariga bog'liq. Kuzgi bug'doy dalasidagi begona o'tlarni gerbitsidlar vositasida bartaraf etilishi gerbitsidlarning turlari, qo'llanilish usullari va muddatlari bilan bog'liq.

Gerbitsidlarning tanlab ta'sir etish xususiyatlari turlicha bo'lishi sababli Puma superning boshqoli, Granstar gerbitsidining ikki pallali begona o'tlarga qarshi samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu sababli ham gerbitsidlarning qo'llanilish muddatlariga bog'liq ravishda Puma superning har gektar yer hisobiga 1 litr hisobida qo'llanilganida ikki pallali begona o'tlarga ta'siri umuman kuzatilmasdan, 20 martda qo'llanilganida boshqoli begona o'tlarni 89,9-92,9% gacha nobud qilib, 10 aprelda qo'llanilganida 89,5-93,8% gacha nobud qilishi kuzatildi. Puma super gerbitsidining bir xildagi meyorining (1 l/ga) kuzgi bug'doy dalalaridagi boshqoli begona o'tlarga qarshi 20 kun kechiktirib (10 aprel) qo'llanilishiga qaramasdan samaradorligini yuqori bo'lishining asosiy sababini haroratning oshishidan deb hisoblash mumkin. Havo harorati oshgan sayin begona o'tlardagi fiziologik jarayonlar birmuncha faollashib, ichidan (sistemniy) ta'sir etuvchi Puma super va boshqa gerbitsidlarning boshqoli begona o'tlarni nobud qilish xususiyati oshadi.

Qayd etilganidek, 10 aprelda 20 martdagiga nisbatan 1m² bug'doy maydonchasidagi begona o'tlar soni 44 donaga oshgan va begona o'tlar birmuncha baquvvatlashib, vegetativ massasi oshgan bo'ladi. Shunga qaramasdan, Puma super

gerbitsidining 1 l/ga meyorini 10 aprelda qo'llanilganida 20 martda qo'llanilganidagiga nisbatan samaradorligining 1,1%gacha yuqori bo'lishi kuzatildi.

Puma super gerbitsidining 1 l/ga meyorini 20 martda qo'llanilganida ham, 10 aprelda qo'llanilganida ham kuzgi bug'doy dalalaridagi ikki pallali begona o'tlarga ta'siri umuman kuzatilmaydi. Demak, Puma super gerbitsidining 1l/ga meyorini kuzgi bug'doy dalasidagi yovvoyi suli, itqunoq, shamak va boshqa boshqoli begona o'tlarni bartaraf etish uchun tajriba mintaqasi sharoitida aprel oyining boshida qo'llanilishi yuqori samara beradi.

Granstar gerbitsidi kuzgi bug'doy dalalaridagi ikki pallali begona o'tlarga qarshi 20 martda qo'llanilganidagiga nisbatan 10 aprelda qo'llanilganida samaradorligi yuqori bo'ladi. Chunki, Granstar gerbitsidining 15 g/ga meyorini 20 martda qo'llanilganida 10 aprelda qo'llanilganidagiga nisbatan birmuncha past bo'lishi kuzatildi. Chunki, Granstar gerbitsidi 20 martad 15 g/ga meyorda qo'llanilganida ikki pallali begona o'tlarning turlariga bog'liq ravishda samaradorligi 84,6% dan 87,5%gacha miqdorni tashkil etgani holda, shu meyorda 10 aprelda qo'llanilganidagi samaradorligi ikki pallali begona o'tlarning turlariga bog'liq ravishda 90,0-95,7% ni tashkil etganligi kuzatildi. Granstar gerbitsidining 15 g/ga meyorini kuzgi bug'doy dalalaridagi boshqoli begona o'tlarga qarshi ta'sir etish xususiyati umuman kuzatilmadi.

Demak, Granstar gerbitsidining 15 g/ga meyorini Surxondaryo viloyatining sug'oriladigan yerlarida kuzgi bug'doy yetishtirilganida dalalarida rivojlanadigan ikki pallali begona o'tlariga qarshi aprel oyining boshida qo'llanilishi yuqori samarali usullardan hisoblanadi.

Biroq, Puma super vositasida kuzgi bug'doy dalasidagi boshqoli begona o'tlar bartaraf etilsa-da, ikki pallali begona o'tlar jadal rivojlanadi. Agar faqat Granstar gerbitsidining 15 g/ga meyorini bilan ikki pallali begona o'tlar bartaraf etilganida boshqoli begona rivojlanib, kuzgi bug'doyning deyarli yarim hosilini barbod qiladi. Shu sababli dala tajribalarimizning variantlaridan birini Puma super va Granstar gerbitsidlarini birgalikda aralashtirib qo'llash yo'li bilan ham boshqoli, ham ikki

pallali begona o'tlarni bir marta gerbitsidlar qo'llash yo'li bilan bartaraf etish bo'yicha ham tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Buning uchun Puma super gerbitsidining 1 l/ga, Granstar gerbitsidining 15 g/ga meyorini kuzgi bug'doy dalasidagi boshqoli va ikki pallali begona o'tlariga qarshi 20 martda va 10 aprelda aralashtirilib, eritilib bir marta sepilganida har ikkala turlardagi begona o'tlarning ham bartaraf etishdagi samaradorligi begona o'tlar turlari va qo'llanilish muddatlariga bog'liq ravishda yuqori bo'lishi kuzatildi. Natijada har ikkala gerbidlarning birgalikda aralashtirilib sepilganidagi samaradorligi 20 martda sepilganida ikki pallali begona o'tlarning turlariga bog'liq ravishda 86,0% dan 100,0% gacha bo'lishi kuzatilib, boshqoli begona o'tlarni bartaraf etishdagi samarali ta'siri 85,7% dan 91,7% gacha bo'lishi kuzatildi.

Puma super (1 l/ga) va Granstar (15 g/ga) gerbitsidlari aralashtirilib, eritilib, birgalikda kuzgi bug'doy dalalaridagi boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga qarshi 10 aprelda sepilganidagi samaradorligi 20 martda sepilganidagiga nisbatan yanada yuqori bo'lishi kuzatildi. Ya'ni, har ikkala turlardagi begona o'tlarga qarshi har ikkala gerbitsidlar birgalikda 10 aprelda qo'llanilganida bug'doy dalalaridagi begona o'tlarni nobud qilish darajasi 25,7% gacha bo'lishi kuzatildi.

Kuzgi bug'doy dalasidagi barcha turlarga mansub bo'lgan begona o'tlarning umumiy soniga nisbatan Puma super (1 l/ga) va Granstar (15 g/ga) gerbidlari vositasida nobud bo'lgan soni 20 martda qo'llanilganida 75% ni tashkil etgani holda, 10 aprelda qo'llanilgandagi begona o'tlarning umumiy sonini nobud bo'lish darajasi 82,3% ni tashkil etdi. Albatta, nobud bo'lmagan begona o'tlar orasida ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga mansub bo'lmaganlari ham mavjud bo'lib, ularga Puma super va Granstar gerbitsidlarining ta'siri kuzatilmaydi.

Qayd etish lozimki, ikki pallali va boshqoli begona o'tlar sug'oriladigan yerlarda bug'doy bilan bir vaqtda rivojlanib, urug'lab pishib yetilishga ulgursa, boshqa turdagi begona o'tlar gullab, urug'lanib ulgura olmaydi. Bunday begona o'tlar kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirilib olinganidan so'ng avj qilib rivojlanadi.

Kuzgi bug‘doy yoppasiga qatorlab ekilishi sababli begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlar traktorlarga tirkalgan sepgichlar vositasida amalga oshirilishi sababli traktor g‘ildiraklari ma’lum miqdorda bug‘doy maysalarini payhon qilib, nobud qilishi yoki zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ikki pallali va boshqoli begona o‘tlarni bir vaqtning o‘zida tegishli gerbitsidlarni aralashtirilib, sepilishi samarali usul bo‘lib hisoblanadi.

Shu sababli ham nafaqat Surxondaryo viloyati, balki boshqa mintaqalar sharoitlarida ham kuzgi bug‘doy dalalaridagi ikki pallali va boshqoli begona o‘tlarni bartaraf etishda Puma super (1 l/ga) va Granstar (15 g/ga) gerbitsidlarini aralashtirilib, eritilib begona o‘tlar to‘liq unib chiqqanidan so‘ng aprel oyining boshida qo‘llanilishini tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babushkin L.N. O‘rta Osiyo paxta mintaqasining agroklimatik rayonlashtirilishi. .: «Gidrometeoizdat», 1968.-157-162 b.
2. Годунова К.Нормы высева зерновых культур.Москва,1964-523 с
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.М.:«Колос»,1985.-317 с.
4. Данилов Р. Борьба с засоренностью полей. Саранск, 1970.-86 с.
5. Генусов А. З., Горбунов Б.В., Кимберг Н. Ф. Почвенно-климатические районирование Узбекистана в сельскохозяйственных целях. Ташкент. Изд. УзАСХИ, 1960.
6. Кукушкин В.К. Фонин А.Д., Рачинский В.В. Транспорт и метаболизм хлорсульфурина в растениях при его поступления через листья. Известия Тимирязевской с/х академия. 1996.-7 с.